



Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Gulchorbog' mahallasida mehmonxona binosi qurilish ishlari loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

	Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati	Asosiy ma'lumotlar va talablar tarkibi
1.	Buyurtmachi	"Mirage Bukhara Palace" MChJ
2.	Loyihani amalga oshirish uchun asos	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PQ-202-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori, "Biznesni rivojlantirish banki" ATB Boshqaruvining 2026-yil 30-iyundagi 61-sonli qarori va bank Kuzatuv kengashining 2026-yil 1-iyuldagi 22-sonli yig'ilish bayoni.
3.	Moliyalashtirish manbai	Buyurtmachining o'z mablag'i
4.	Tanlashning boshlang'ich narxi	Obyektning joriy narxiga nisbatan QQS bilan birga foiz ko'rinishida.
5.	Ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish muddati	Xizmatlarni ko'rsatish muddati shartnoma imzolangan kundan boshlab «180» kalendar kuni.
6.	Ishlar xavfsizligini ta'minlash shartlari	Normativ hujjatlar talablariga rioya qilish. Loyihachi yong'in xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va sanitariya-gigiyena rejimiga rioya qilinishi uchun javobgardir hamda buyruq nusxasini taqdim etadi.
7.	Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha talablar	Quyidagilar talablariga muvofiq bajarilsin: O'zbekiston Respublikasining 09.12.1992-yildagi 754-XII-sonli "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.01.2024-yildagi PF-5-sonli "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni; hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari.
8.	Ishlarni bajarishda qo'llaniladigan qurilish materiallarining energiya samaradorligi bo'yicha talablar	Energiya samaradorligini ta'minlash hamda jahon standartlari talablariga javob beradigan zamonaviy elektr jihozlaridan foydalanish bo'yicha zarur chora-tadbirlar bajarilsin. Shuningdek, quyidagilar talablari inobatga olinsin: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023-yildagi PQ-57-sonli Qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-sonli Farmoni; O'zbekiston

		Respublikasi Prezidentining 22.08.2019-yildagi PQ-4422-sonli Qarori.
9.	Yong'in xavfsizligi bo'yicha talablar	Ishlar quyidagilar talablariga muvofiq bajarilsin: O'zbekiston Respublikasining 30.09.2009-yildagi O'RQ-226-sonli "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni; ShNK 2.01.02-04 "Binolar va inshootlarning yong'in xavfsizligi"; ShNK 2.04.09-07 "Binolar va inshootlarning yong'in avtomatikasi"; hamda O'zbekiston Respublikasining yong'in xavfsizligi sohasida amalda bo'lgan boshqa qonunchilik va normativ hujjatlari.
10.	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sharoitlar yaratish bo'yicha talablar	O'zbekiston Respublikasining 15.10.2020-yildagi O'RQ-641-sonli Qonuni hamda amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq bajarilsin.
11.	Obyektning murakkablik darajasi	III-toifa (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-avgustdagi 496-sonli qarori, 2-ilovasi, 23.1-bandi)
12.	Moliyalashtirish tartibi	Oldindan to'lov-30%, qolgan 70%i topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.
13.	Loyihachiga texnikaviy va boshqa hujjatlarni topshirish bo'yicha talablar	Loyihachiga belgilangan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan loyiha oldi hujjatlari (ART, Topotasvir, texnik shartlar va b.q) taqdim etiladi.
14.	Ishlar sifatiga qo'yiladigan talablar.	Barcha ishlar qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq bajariladi. Loyihachi ishlarni texnologik xaritalarga muvofiq amalga oshiradi.
15.	Loyihalash bosqichi	Qurilish ishlarini loyihalash ishlari bilan birga olib borish.